

**YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY JIHATDAN HIMOYAGA
MUHTOJ AYOLLAR HUQUQLARI HIMOYASINING
NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI**

*Ilmiy rahbar: Inagamova Mafura Muxtarxanovna
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent
Bo'ranova Arofat Baxtiyorovna
Toshkent davlat transport texnikumi o'quvchisi*

Annotatsiya. Maqola boquvchisini yo'qotgan ayollarning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda mehnatga oid munosabatlaridagi huquqlari va manfaatlari yoritilgan. Shuningdek, gender tenglik, ijtimoiy jihatdan himoya iqtisodiy imkoniyatlar masalasi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat kodeksi, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir ayol, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lмаган xotin-qizlar, ayollar daftari,

Bugungi jadal rivojlanayotgan jamiyatda boquvchisini yo'qotgan ayollar oilaning iqtisodiy ustuni, farzandlarining komil inson bo'lib etishilarida chinakam kurashchi sifatida o'rinnegallamoqdalar. Mamlakatimizda ayollar huquqlari, ayniqsa boquvchisini yo'qotgan ayollar va ularning huquqlari davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlanmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 28 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi O'RQ-798-sonli qonunidir. haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur kodeks Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1930 yildagi Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-sonli konven siyasadagi majburiy mehnatni tartibga solish bilan bog'liq normalar, 1970 yildagi Haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risidagi 132-sonli konvensiyalari qoidalariga aynan mos holda ishlab chiqildi. U umumiy va maxsus qismidan iborat bo'lib, 7 bo'lim, 34 bob va 581-moddadan iborat.

Mazkur kodeksda mehnat va mashg'ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki yuqoriq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar (oilaviy vazifalarini bajarish bilan band bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va boshqalar) to'g'risidagi alohida g'amxo'rlik bilan bog'liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek ularni cheklash kamsitish deb hisoblanmaydi, deb ta'kidlanganligi yurtimizda ayrim toifadagi xodimlar mehnatining chin ma'nodagi himoyasidir.

Yana bir muhim hujjat ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmanan xotin-qizlar bilan «Ayollar daftari»ni yuritish orqali ishslash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy — huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagи «Xotin-qizlar muammolarini o'rghanish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 145-son qarori¹dir.

Mazkur qarorga muvofiq, «Ayollar daftari»ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi vazifalarni ustuvor ravishda amalga oshirish belgilangan. Xususan, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash; tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanishi uchun ko'maklashish; ularni tadbirkorlikka jalg qilish; moddiy yordam ko'rsatish; turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to'lash; ijtimoiy uylarga joylashtirish va ularning uy-joylarini ta'mirlashga ko'maklashish; tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish kabi bir qator muhim masalalar belgilangan va ijroga qaratilgan.

«Ayollar daftari» ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash maqsadida, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan xotin-qizlarga hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida o'ttiz uch million so'mgacha kreditlar ajratildi. Kreditlar qarz oluvchining ssuda hisob varag'idan kredit shartnomasida belgilangan maqsadlar uchun tegishli tashkilotlarning bankdagi hisob varag'iga pul o'tkazish yo'li bilan ajratilishi belgilandi.

Shuningdek «Ayollar daftari»ga kiritilgan va o'zini o'zi band qiladigan xotin-qizlarga ayrim turdagи faoliyatni amalga oshirish (kasanchilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilar uchun zaruriy xom ashyo, ehtiyyot qism hamda qurilish mollarini sotib olish) maqsadida 5 million so'mgacha miqdorida kredit mablag'lari naqd pulda berilishi yo'lga qo'yildi².

Yurtimizda ayollar huquqlarini ta'minlash va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ayniqsa ayollarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish uchun keng shart shoroitlar yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagи «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 87-sonli farmoniga muvofiq, 2022 — 2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy,

¹ Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.2022 й., 09/22/145/0253-сон, 10.09.2022 й., 07/22/373/0808-сон, 29.09.2022 й., 09/22/541/0859-сон; 13.01.2023 й., 06/23/2/0024-сон

² <https://advice.uz/uz/document/2332>

siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturi³ ishlab chiqilib ijroga qaratildi.

Milliy dasturning maqsadi — xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, ularning salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda, xususan, davlat boshqaruvida ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlashdan iborat.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tilishi lozim bo'lgan yana bir muhim huquqiy mexanizm haqida to'xtalib o'tsak. Ya'ni, ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliv ta'lim muassasalari kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasidagi tanlovdha ishtirok etish uchun tavsiyanoma berilishi ularning ta'lim olishlari va jamiyatda o'z o'rinalarini topishdagi muhim qadarlardan biri bo'ldi.

Mazkur tavsiyanoma quyidagi mezonlar asosida beriladi:

- kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlar;
- to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar;
- turmush o'rtog'i vafot etgan, voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- nogiron farzandi bor ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar;
- 2 va undan ortiq farzandini tarbiyalayotgan, qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg'iz ayollarning qiz farzandlari;
- ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ham I yoki II guruh nogironi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayollarning ta'lim olishlari uchun bir qator imkoniyatlar yaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 avgustdagи «Davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lab berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 447-sonli qaroridir. Qarorga muvofiq, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan xotin-qizlarga to'lov-kontraktning to'liq summasini (tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt summasi to'lovlari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplab berish kafolatlandi.

³ Конунчиллик маълумотлари миллий базаси, 07.03.2022 й., 06/22/87/0198-сон; 13.06.2023 й., 06/23/92/0366-сон

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan huquqiy hujjatlar ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj ayollar huquqlari himoyasining nazariy-huquqiy asoslaridan ayrimlari hisoblanadi. Davlat siyosati darajasiga himoya qilinayotgan mazkur masala yuzasidan hukumat tomonidan bir qator yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi va ijroga qaratish jarayonlari jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Albatta, bu o'z navbatida ayollarning oilada, jamiyatda tutgan o'rni va rolini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.